

GENDER XUSHMUOMALALIKKA ASOSLANGAN IBORALARNING SHAKLLANISHI

Djalilova Zarnigor Obidovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Email: zarnigor.djalilova@bsmi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7472978>

Annotatsiya. Ayol va erkak nutqidagi kirish so'zlar, bo'sh sifatlar, qo'shimchalar va qarg'ish va qo'pol so'zlardan foydalanish muammosining dolzarbligi. Sotsiolingvistikaning hayotimizdagi o'rni, erkak va ayol tiliga e'tibor qilish, va natijada bu masalani ijtimoiy lingvistikada ham ularning yutuqlaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Ushbu masalalarni yoritib borish ushbu mavzuning o'zbek va ingliz ijtimoiy lingvistikasi va gender tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, kirish so'z, tilshunoslik, evfimizm, gender tilshunoslik, evfemiya hodisasi, pragmatik omil

Kirish. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda evfemizm hodisasini o'rganish, unga lingvistikaning yangi yo'nalishi rakursida shakllandi. Zamonaviy tilshunoslikda gender tushunchasi paydo bo'lib, bu yangi tushuncha orqali lingvistikada gender tilshunoslik yo'nalishi paydo bo'ldi. Bu yo'nalish ingliz tilida so'zlovchi jamiyatning ijtimoiy ongida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gender tilshunoslik yo'nalishi – ayol va erkak nutqidagi o'ziga xosliklarni, har bir jins vakili nutqidagi xususiyatlarni xushmuomalalik pozitsiyasi bilan o'rganishni taqozo etadi va erkak va ayol nutqidagi farqlar va o'xshashliklar bu yo'nalishning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu soha ko'plab tilshunoslarning izlanishlari markazida turadi. Bularga E.A. Zemskeya, A.P. Martinyuk, R. Lakof, Dj. Koats kabi olimlarning ishlarini misol qilishimiz mumkin. Evfemizmlar insoniyat nutqida qadimdan mavjud bo'lgan. Tildagi tabular so'z yasali jarayonidagi baquvvat richag sifatida xizmat qilgan, natijada taqiqlangan so'zlar o'rnini yangi, maqbul variantdagi evfemizmlar egallagan. Lingvistik adabiyotlarda evfemizm tushunchasiga berilgan ko'plab izohlarni uchratamiz. Ularning tahlili shunday yakuniy xulosaga olib keladi: **evfemizmlar** deb, nutqda qo'pol, istalmagan, ishlatilishi nojoiz bo'lgan tushunchalar o'rnida qo'llaniluvchi so'z va iboralarga aytiladi. Evfemiya muammosini ko'plab olimlarning ishlarida keng va sarmahsul yoritilgan. Bunda olimlar sirasiga B.A. Larin, L.A. Bulaxovskiy, C. Silver va J. Neaman kiradi. Evfemiya hodisasini o'rganuvchi ingliz tilshunosi J. Neamanning ishlarini o'rganar ekanmiz, til va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida evfemistik tezaruslar guruhlarining dolzarbligi turlicha bo'lgan. Evfemizmlarning eskirishida asosiy faktorlarga ma'naviy va ijtimoiy

negizlarning xilmaxillashuvi kiradi. Shu bilan bir qatorda u yoki bu realiyalarning yo'qolishi, yoki aksincha yangi realiyalarning yaralishiga sabab bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Evfemizmlarning yaratilishida bir qator pragmatik omillarni ajratib ko'rsatish zarurdir. Pragmatik omillarning ajratib ko'rsatishning o'ziyoq so'zlovchini evfemizmlardan foydalanishga undaydigan asosiy turtki ekanligini ta'kidlaydi. Gender xushmuomalalik tamoyili asosida yaratilgan evfemizmlar turli xildagi aqliy va jismoniy nuqsonlarni yanada yumshoqroq ifodalashda qo'llaniladi. Ushbu yangi tushunchaga izoh berar ekanmiz, nutqiy vaziyatlarda o'zini munosabatini bildirishda suhbatdoshiga nisbatan hurmatga asoslangan, irqiy kamsitilishni rad etadigan, erkak yoki ayol jinsining munosabatlarda ustunligini emas, balki har ikkala jinsga sabr toqat va muloyimlik bilan muomala qilishni, salbiy fikrlarni neytrallashtirishdan iboratdir. Gender tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy qismi "ayollar masalasiga" bag'ishlangan. Bizning tadqiqotlarimiz doirasida o'rganilayotgan evfemizmlar asosan ayollar nutqiga xos bo'lgan, ayollarni tavsiflovchi evfemizmlardir. Shuni ta'kidlash joizki, aynan ayollar o'z nutqida evfemizmlarni ko'proq ishlatishadi. R. Lakoffning aytishicha, ayollar – evfemizmlar borasida haqiqiy mutaxassislardir. Uning fikricha, ayollar nojo'ya yoki nomuqobil, qo'pol iboralarni ishlatishmaydi va bu o'z navbatida "ayollar tilini" o'rganish uchun yanada qiziqarli obyektga aylantiradi.

Zamonaviy ingliz tilidagi gender xushmuomalalikni ifodalovchi evfemistik birliklarni izlash jarayonida ingliz tilidagi ba'zi bir manbalarni tahlil qildik. ("The Gazette", "The Oprah magazine", "People" jurnallari), shuningdek ayollarning tashqi ko'rinishi, ijtimoiy va boshqa sohalardagi faoliyatini ifodalovchi evfemizmlarni tavsiflash maqsadida yangi ingliz tilining izohli va maxsuslashtirilgan, til va mamlakatshunoslik yo'nalishidagi lug'atlariga murojaat qildik. An'anaviy umumiste'molda bo'lgan evfemizmlarning badiiy adabiyotlarda, OAVda va reklamalarda uchratishimiz mumkin. Rus tilshunosi G.A. Vildanovanning fikricha, ayollarga xos jihatalrni xarakterlovchi evfemizmlarni tahlil qilishdan oldin ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatning o'ziga xos bo'lgan streotiplarini va ijtimoiy axloq normalarini inobatga olish zarurdir. Ayollarga negativ munosabatlarni bildirishda evfemiyalashgan birliklarni bir nechta tematik guruhlarga ajratdik.

1. Baholash xarakterini ifodalovchi evfemizmlar. Bu guruhga kiruvchi evfemizmlar xushomaddan yiroq bo'lgan holda, jamiyatning ayol xulq ayol atvoriga, oilaviy holatiga bo'lgan munosabatini bildiruvchi leksik birliklar kiradi.

Bunday birliklar hammaga tanish bo'lib, "no better than should be" yoki "not all she should be" hayotga yengil qarovchi ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bunday baholovchi xarakterdagi evfemizmlar kinoya bilan birga qollaniladi. Misol uchun, "on the shelf" – eskirgan yoki qolib ketgan tovar ma'nosida kelib, turmush qurmagan, kech oila qurmoqchi bo'lgan ayol ma'nosida, "fishing fleet" (baliq ovi – flotiliya) turmush qurish yoshidagi qizlarning oila qurish maqsadida chet elga ketib qolishini ifodalashda, "wallflower"¹ – tashqi ko'rinishi jozibador bo'lmagan yosh qizlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Jismoniy kamchliklarni yashirish uchun ishlatiladigan evfemizmlar.

Bu guruhga mansub evfemik birliklar juda ko'p bo'lib, bunga ayollarning chiroyiga, qomatiga, yaxshisi ko'rinishiga bo'lgan kuchli intilishini sabab qilsak bo'ladi. Ayollardagi ortiqcha vazn yoki "semizlik" kabi muammolar tilda mazkur muammolarni ifodalovchi evfemizmlarni shakllanishiga sabab bo'ldi. Bunday evfemizmlarga "full-figured", "ample", "well-built", "filled out", "pleasantly plump", "big boned" kabilar misol bo'ladi². Shuningdek, "of classic proportions" – klassik proporsiyalar sohibasi, ya'ni qomati mukammal ayollarga nisbatan ishlatiladi. Savdo sotiq sohasida ham mahsulotni xarid qilishga undash yoki mijozni jalb qilish uchun yuqorida misol keltirilgan evfemizmlar keng qo'llaniladi. Katta o'lchamli kiyimlarni sotishda, to'ladan kelgan ayollarga kiyimlarni mohirona taklif qilish, o'lchamni kattaligini mohirona ifodalash uchun mos birliklarni qo'llay olish talab etiladi. Masalan, "mature figure", "queen size", "full size" kabilarni ham misol keltirsak bo'ladi.

3. Jismoniy fiziologik jarayonlar va tana a'zolarini ifodaluvchi evfemizmlar. Bu guruhdagi evfemizmlar bir qator so'zlarni o'rni almashtirgan holda yoki tabulashgan birliklarni o'rniga ishlatiladigan yoki istalgan ijtimoiy jamiyat nutqida uchratamiz. Ularning paydo bo'lishida ma'naviy qattiqo'llik va uyat sabab bo'lgan. Quyida misollar bilan tanishamiz. "anticipating", "expecting" kabilar misol bo'ladi. Tanadagi fiziologik holatlarni anglatishda "bedewed", "wetness" singari evfemizmlar yoki "a lady night get "bedewed" but she didn't sweat" singari misollarni uchratamiz.³ Evfemizmlar qo'llanilish doirasi va nutq egasining muomala madaniyati, so'zlovchi va tinglovchining salohiyatidan kelib chiqqan holda rang tanlanadi. Nafaqat so'zlashuv jarayonida, balki badiiy adabiyotda ham evfemizmlarning keng tarqalganiga guvoh bo'lamiz. Bu tilning ma'no mazmun imkoniyatlarining ko'pligini anglatadi. Endilikda evfemik birliklar faqatgina yozuvchi yoki shoirlar, jurnalistlar asarlarida ifodalanibgina qolmay, shu tilda muloqot qiluvchilarning, qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar, nutqida o'z aksini topsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Evfemizmlar xushmuomalalik va yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu o'z

navbatida har bir so'zlovchini tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bondaletov V. Sociolinguistics–M.: Просвещение, 1987.
2. Çakici Dilek. (2011). Gender and Language. Ondokuz Mayıs University, Eğitim Fakültesi, İngiliz
3. Obidovna, D. Z. (2022). GENDER DIFFERENTIATION OF MASCULINE AND FEMININE VERBALIZATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 59-65.
4. Djalilova, Z. O. (2021). Studies on gender linguistics in the field of Uzbek language. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 391-397.
5. Obidovna, D. Z., & Sulaymonovich, D. S. (2022). Physical activity and its impact on human health and longevity. *Достижения науки и образования*, (2 (82)), 120-126.
6. Obidovna, D. Z., & Denis, S. (2021). Formulas of speech etiquette in a gender-engineered communication strategy. *Central asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(6), 5-11.
7. Obidovna, D. Z. (2021). Comparative Analysis Of Uzbek Men's And Women's Speech Through The Prism Of Gender Linguistics. *Central Asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(2), 22-26.
8. Obidovna, D. Z. (2022). Speech Behavior and its Gender Specificity on the Basis of the Main English Language Variants. *Middle European Scientific Bulletin*, 22, 199-205.
9. Obidovna, D. Z. (2021). Gender issues in foreign theoretical linguistics: concerning the history of the issue. *Gender issues*, 7(6).
10. JALILOVA, Z. O. (2021, March). ON THE FORMATION OF THE LANGUAGE OF SCIENTIFIC LITERATURE IN THE HISTORY OF THE ENGLISH LANGUAGE. In *E-Conference Globe* (pp. 18-22).
11. Jalilova, Z. O. (2020). Concerning the issue of terms, having a place with various morphological classes (in view of the example of the terminological arrangement of social action). *Новый день в медицине*, (4), 501-503.
12. Djalilova, Z. O., Juraev, S. S., & Kosimov, S. M. (2021). LATIN AS A PROFESSIONAL LANGUAGE OF MEDICAL WORKERS. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 23 (том 1)(апрель, 2021). Дата выхода в свет: 30.04. 2021., 79.
13. Джалилова, З. О., Хасанов, К. А., & Султонов, А. А. (2021). Роль научного управления в процессе обучения высококвалифицированных

врачей в новом Узбекистане. *Молодой ученый*, (26), 377-379.

14. Dzhaliilova, Z. O. (2021). The Latin language's international status. *Молодой ученый*, (41), 32-34.

15. Dzhaliilova, Z. O., & Mirfajziyev, K. (2021). Latin as the language of medicine. *Молодой ученый*, (41), 35-37.

16. Dzhaliilova, Z. O., Izomova, S. G., & Ahmedova, G. A. (2021). Intercultural communication and the Latin language. *Молодой ученый*, (24), 398-400.

17. Dzhaliilova, Z. O. (2021). History of formation of Latin language. *Молодой ученый*, (41), 34-35.

18. Obidovna, D. Z. (2022). GENDER SPEECH BEHAVIOR IN THE CONTEXT OF THE SOCIO-LINGUISTIC FACTOR. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 190-198.

19. Dzhaliilova, Z. O., Hajdarova, N. S., & Tashpulatova, N. A. (2021). Latin in the Contemporary World. *Молодой ученый*, (24), 400-402.

20. Djalilova, Z. (2022). POLITENESS IN WOMEN'S DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Academic research in modern science*, 1(11), 29-34.

21. Obidovna, D. Z., & Sulaymonovich, D. S. (2022). THE CONCEPT OF "HEALTHY LIFESTYLE" IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(06), 53-64.

22. Джалилова, З. (2022). РЕАЛИЗАЦИЯ МАКСИМ ВЕЖЛИВОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ДИАЛОГАХ. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(21), 22-33.

23. Obidovna, D. Z. (2022). A Speech Etiquette Formula for the Gender Communication Strategy. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 44-50.

24. Djalilova, Z. (2022). DISCURSIVE ELEMENTS AND THE CATEGORY OF POLITENESS. *Academic research in modern science*, 1(12), 8-14.

25. Джалилова, З. О. (2022). НУТҚ ҲАРАКАТЛАРИДА ХУШМУОМАЛАЛИКНИНГ ГЕНДЕР ХУСУСИЯТЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(5).

26. Obidovna, D. Z. (2022). DISTINCTIVE FEATURES OF MALE AND FEMALE ORAL SPEECH IN MODERN ENGLISH. *International Journal Of Literature And Languages*, 2(10), 14-21.

27. Obidovna, D. Z. (2022). THE MAIN CONCEPTS OF POLITENESS IN MODERN LINGUOPRAGMATICS: THE POLITENESS PRINCIPLE BY J. LEECH. *International Journal of Pedagogics*, 2(11), 15-20.

28. Djalilova, Z. (2022). GENDER DIFFERENTIATION OF DISCOURSE ELEMENTS AS INDICATORS OF POSITIVE AND NEGATIVE

EVALUATIONS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 2(12), 55-63.

29. Djalilova, Z. (2022). GENDER-DETERMINED DIFFERENCES IN THE SPEECH OF LITERARY CHARACTERS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(12), 210-215.

30. Djalilova, Z. (2022). GENDER ELEMENT OF SPEECH BEHAVIOR FROM THE POSITION OF TEXT ORGANIZATION MECHANISMS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(13), 274-281.